



Научно-образовательный электронный журнал

# **ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ**

Выпуск №21 (том 2)  
(декабрь, 2021)

Мирзаахмадова Зубайда	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHDA INNOVATSION YONDASHUV Qarabayev Jamshid Rustamovich	670
BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ELEMENTLARINI QO'LLASHNING AFZALLIKLARI Muxtorova Dilfuza Mahmudjon qizi	675
ТОҒАЙ МУРОД БАДИИЙ НУТҚИДА МЕТАФОРИК ИФОДАЛАРНИНГ ФУНКЦИОНАЛ-СЕМАНТИК, КОГНИТИВ ХОССАЛАРИ Холназаров Умид Эркинович	678
МАМЛАКАТ TASHQI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA QARATILGAN VOJXONA FAOLIYATI Aytmuratova Barno Abdikarim qizi	691
НЕКОТОРЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ ТАМОЖЕННОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ Иномжонова Севара Акмалжон кизи	697
ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА АХБОРОТЛАШТИРИШ МИЛЛИЙ ТИЗИМИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ ВА АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН УНУМЛИ ФОЙДАЛАНИШ Абдусаломова Истора Илхом кизи	706
ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ДАВЛАТ СТАТИСТИКА ХИСОБОТЛАРИНИ ТАҚДИМ ЭТИШДА АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ТУТГАН ЎРНИ Абдусаломова Истора Илхом кизи	712
1000 YILLIK TARGIBOTCHI TILSHUNOS KIM? Bektosheva Gulhayo	716
МАТЕМАТИКА DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR Mirzayev Odiljon Abduraximjonovich	718
SOHIBQIRON SHAHSIYATINING YOSHLAR MA'NAVIYATIDAGI O'RNI Alimova Madinabonu	725
ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАР ВАЗИРЛИГИ АКАДЕМИЯСИ ХУЗУРИДАГИ ФУҚАРО МУҲОФАЗАСИ ИНСТИТУТИ МАГИСТР КУРСЛАРИГА “БОЖХОНА ИШИГА КИРИШ” ФАНИНИ КИРИТИШ ЗАРУРЛИГИ ҲАҚИДА С. Арипов	732
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ БОЖХОНА ХУДУДИГА КИРИБ КЕЛАЁТГАН СИФАТИ КАФОЛАТЛАНМАГАН ҲАМДА САҚЛАШ МУДДАТИ ТУГАГАН ОЗИҚ-ОВҚАТ	740

**ФИО автора:** Qarabayev Jamshid Rustamovich

Namangan davlat universiteti Pedagogika-psixologiya fakulteti Ta'lim menejmenti kafedrası o'qituvchisi

**Название публикации:** «BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHDA INNOVATSION YONDASHUV»

Har bir xalqning ertangi kuni o'sib kelayotgan yosh avlodga, ularning bugungi kunda qanday ta'lim-tarbiya olayotganiga bog'liq. Bunday mas'uliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o'qituvchisidan, ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchisidan o'z kasbiy mahoratini oshirib borishni, ilg'or pedagogik texnologiyalar mohiyatini chuqur anglab yetishni va darslarni noan'anaviy holatda tashkil etishni talab etmoqda. Bu darslarga o'yin texnologiyalarini olib kirish demakdir.

Chex olimi Yan Amons Komenskiy "Aynan o'yin orqali bolalarning aqliy tomonlarini har tomonlama rivojlantirishimiz mumkin" degan edi.

O'yin olimlarning tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z hulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

A.N.Leontev o'yinga shaxsning hayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari, manfaatlarini hayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta'kidlaydilarki, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi.

O'yinli faoliyat muayyan funktsiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi.

Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv.

Tadqiqotchilarning o'yin xususiyatlarini ta'riflashicha, uning muhim qirralari shundan iboratki, u erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlarga ko'ra, faoliyat jarayonining o'zidan bahra olish uchun qo'llanadi.

O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga – "ijod maydoniga" ega bo'ladi.

O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchilar nazariy aspektda o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar.

O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olishi, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub'ekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashishi shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'limini o'zlashtirishda o'qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi.

O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llaniladi.

O'yinning didaktik maqsadi, bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, solishtirish, o'xshashni topish, faraz, hayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, o'quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiylashuv o'yinlari jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlarga ko'nikish, ehtirolarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish, muloqotga o'rgatishni nazarda tutadi.

O'yinlardan materiallarni, yangi bilimlarni egallash, o'tilganlarni mustahkamlash, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, umumiy malakani shakllantirish, mantiqiy, tanqidiy, mustaqil fikr va tafakkurini oshirish kabi bir qator vazifalarda foydalaniladi.

O'yin jarayonida tortishish, musobaqalashish, baxs-munozara yuritish ruhiyatining bo'lishini ta'minlash zarur. Bu esa o'quvchida muammolarni qo'ya bilish, uni yechish, hal qila olish, mustaqil fikrlash, mantiqiylik, ob'ektivlikka nisbatan qiziqishni shakllantiradi, muammoni yechishda o'zini tuta bilish ko'nikmalarini ham shakllantiradi va hosil qiladi.

O'yin-munozaralar muayyan muammo bo'yicha baxslarni tashkil etilishini ko'zda tutadi. Bahs muammoni hal qilish jarayonidir. Uning usuli esa guruh bo'lib tadqiq qilishdir.

O'yin orqali bola shaxsining barcha tomonlari shakllanadi. Psixikada yangi, yuqoriroq rivojlanish bosqichiga o'tishni ta'minlaydigan o'zgarishlar ro'y beradi. O'yinlardan ijodiy o'yinlar ham alohida ahamiyatga egadir. Bu o'yinlarda bolalar atrofdagi olamda hamda kattalar hayotida kuzatayotgan jarayonlarni aks ettiradilar. Ijodiy o'yinlar bola shaxsining shakllanishida juda katta ahamiyatga ega bo'lganligi uchun tarbiyalashning muhim vositasi hisoblanadi. U quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

1. Bolalar o'yinda atrofdagi insonlar hayotini faol aks ettiradi.
2. O'yin kompleks harakatlar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, yozishda yoki rasm chizishda alohida harakatlar kerak bo'ladi.
3. O'yin voqelikni bola tomonidan ijodiy aks ettirish shaklidir. O'ynash jarayonida o'quvchilar yangiliklar yaratadilar, yangi g'oyalar ishlab chiqadilar.
4. O'yinda bolaning bilish, fikrlash, bayon qilish va ijodiylik qobiliyatlari rivojlanadi, ma'naviy-axloqiy sifatleri shakllanadi.
5. O'yin jamoadagi faoliyat bo'lganligi uchun, uning barcha ishtirokchilari

hamkorlikdagi munosabatlarda bo'ladilar.

6. Boladagi rivojlanish bilan birgalikda o'yinning rivojlanishi va o'zgarishi o'sib boradi.

O'yinlarni o'tkazishda bolalarning individual va yosh hususiyatlarini inobatga olish lozim. Chunki maktab yoshidagi o'quvchini tushunchalari sinfdan-sinfga ko'chganda o'zgarib borishi sir emas. Yangi maktabga qadam qo'ygan o'quvchiga interaktiv metodlardan foydalanib tashkil qilingan o'yinlarni o'tkazish ularga noqulaylik tug'dirishi mumkin. Shuning uchun o'yinni ishlab chiqishda uni sinflarga moslab bo'lish va bunga jiddiy yondoshish kerak.

O'yinni tashkillash va o'yinga bolalarni qiziqtirish o'qituvchidan katta mahorat, mehnat, artistlik mahoratini talab etadi. Bunda o'qituvchi o'zining mimikasi, nutqi, harakatlari bilan o'yinga bo'lgan qiziqishni uyg'otishi, har bir bolaning yutuqlarini vaqtida rag'batlantirishni bilishi kerak. Muvaffaqiyatdan olingan xursandchilik, qiziquvchanlik inson shaxsining har tomonlama rivojlanishiga olib keladi.

O'yinda qoidalarni va munosabatlarni (masalan, subordinatsion) aniq bajarishga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda birinchi marotaba sardorlik hosil bo'ladi. Bolalarda tashkilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlana boshlaydi.

Musobaqa o'yinlarini alohida o'yin guruhiga ajratish mumkin. Bu o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish bola uchun juda ahamiyatlidir. Shuning uchun aynan musobaqa o'yinlarida muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi shakllangani va rivojlangani uchun bu o'yin texnologiyasini olib kirish boladagi qiziqish va ishtiyoqini o'sishiga yaxshi samara bo'lishi mumkin.

– Shuni ta'kidlash lozimki, pedagogik o'yinli mashg'ulotlar qatnashchilar-dan rollarni o'ynashda avval o'rganilgan bilimlarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi va umumiy me'yor qoidalarni bajarishni talab qiladi.

Rus metodistlari E.F. Bugrimenko va G.A, Sukermenlar boshlang'ich ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan o'yin texnologiyasini 2 turga bo'ladilar.

1. Ko'ngilochar o'yinlar.
2. Ta'lim beruvchi o'yinlar.

Olimlarning haqli ravishda uqtirishlaricha, ta'lim jarayonida ko'pchilik o'qituvchilar tomonidan qo'llanilayotgan o'yinlar har doim ham faol bilim olishga yo'naltirilavermaydi. O'qituvchilar ba'zan bolalarga dam berish, ulardagi charchash oldini olish, sinfda ko'tarinkilikni tashkillash maqsadida hordiq beruvchi o'yinlardan foydalanadilar. Albatta, bunday ko'ngilochar o'yinlar o'quvchi faoliyatida katta ahamiyatga ega. Bu esa tashkilotchilik, birdamlikka intilish, do'stlik, o'zgalarga yordam berishga tayyor turish kabi ijobiy tuyg'ularning rivojlanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday o'yinlarni aksariyat o'quvchilarda charchoq kuzatilganda, aqliy zo'riqishning oldini olish maqsadidagina qo'llash zarur. Odatda tajribali pedagoglar o'z darslarida o'yin elementlari aralashgan dam olish daqiqalarini xuddi shunday maqsadda oqilona takomillashtirib boradilar.

Didaktik o'yinlarga qo'yiladigan talablar esa birmuncha jiddiyroq. Ular bevosita ta'lim maqsadiga xizmat qiladi. Bu o'yinlar bolalarning aqliy rivojlanishida, ularni bilishga undashda, mantiqiy tafakkur qilishda, birmuncha afzalliklarga ega. Bunda o'quvchidagi bilim olishga ishtiyoq, izlanuvchanlik, sinchkovlik, topqirlik va ziyraklik hislatlarini shakllantirish va rivojlantirish osonlashadi va keng yo'lga qo'yiladi. Bu o'yinlar o'qituvchi tomonidan o'quv tarbiyaviy maqsadlar uchun maxsus tashkil qilinadi.

Demak, o'qituvchi darsda o'yinlarni qo'llar ekan uning didaktik va ko'ngilochar turlaridan qay darajada foydalangani, me'yorini, o'rnini, vaqtini bilishi lozim. Darsda didaktik o'yin unsurlarini qo'llash o'quv materialini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf qiladi. Ko'rish va eshitishga oid faoliyat turi bilan bog'liq ko'rgazmali vositalar, qiziqarli savollar, hazil topshiriqlar, kutilmagan vaziyatlar o'quvchi aqliy faoliyati samaradorligini ta'minlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tal'at G'afforova "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" Toshkent-2011.
2. K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova va boshq Pedagogika tarixi Toshkent:O'qituvchi, 1996.